Abstract. The rapid growth of international tourism flows raises the issue of visitor management and architectural integrity preservation at UNESCO World Heritage sites. Despite the Historic Centre of Bukhara, inscribed on the UNESCO list in 1993, receiving hundreds of thousands of tourists annually, no scientifically based tourist carrying capacity has been measured for individual sites. This study fills this gap by measuring Physical Carrying Capacity (PCC) and Real Carrying Capacity (RCC) for the Nadir Divanbegi Khanqah in the Historic Centre of Bukhara. The research applies the three-stage Cifuentes methodology. The results show a significant difference between physical and real carrying capacity, with the RCC/PCC ratio falling within international norms. For the Nadir Divanbegi Khanqah, PCC is 20,582 visitors per day, while RCC is 14,321 visitors per day. The RCC/PCC ratio is 69.6%, which lies within international standards. This study is one of the first quantitative carrying capacity assessments for an individual heritage site in Uzbekistan and provides a scientific basis for the sustainable management of the Historic Centre of Bukhara.

Key words: tourist carrying capacity, physical carrying capacity, heritage site management, Bukhara, UNESCO World Heritage, Cifuentes model, sustainable tourism.



Аннотация. Стремительный рост международных туристических потоков актуализирует проблему управления посетителями и сохранения архитектурной целостности исторических объектов из списка Всемирного наследия ЮНЕСКО. Исторический центр Бухары, включённый в список ЮНЕСКО в 1993 году, ежегодно принимает сотни тысяч туристов, однако для отдельных объектов до сих пор не была измерена научно обоснованная туристическая ёмкость. Данное исследование восполняет этот пробел на примере ханаки Нодир Девонбеги в историческом центре Бухары, определяя показатели физической (PCC) и реальной (RCC) ёмкости. В работе использована трёхэтапная методология Сифуэнтеса. Результаты показали существенное различие между физической и реальной ёмкостью, при этом отношение RCC/PCC находится в пределах международных норм. Для ханаки Нодир Девонбеги физическая ёмкость (PCC) составляет 20 582 посетителя в день, а реальная ёмкость (RCC) — 14 321 посетителя в день. Отношение RCC/PCC равно 69,6%, что соответствует мировым стандартам. Данное исследование является одним из первых количественных оценок ёмкости для отдельного объекта наследия в Узбекистане и создаёт научную основу для устойчивого управления историческим центром Бухары.

Ключевые слова: туристическая ёмкость, физическая ёмкость, управление объектами наследия, Бухара, Всемирное наследие ЮНЕСКО, модель Сифуэнтеса, устойчивый туризм.

KIRISH

So'nggi o'n yil ichida xalqaro turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylandi. 2025-yilda dunyo bo'ylab 1,52 milliard kishi sayohat qilgan [1]. Bu raqam pandemiyadan keyin turizm to'liq tiklanganini ko'rsatadi. 2025-yilda sayyohlar soni 2024-yilga nisbatan 60 million kishiga, ya'ni 4 foizga ko'paygan [1]. Moliyaviy jihatdan ham rekord darajaga erishildi: yo'lovchi tashish xizmatlari bilan birga turizm eksportidan tushgan daromad 2024-yilda 1,9 trillion dollarga yetgan [2]. Bu pandemiyadan oldingi ko'rsatkichlardan taxminan 3 foiz yuqori [2].

O'zbekiston ham bu global o'sishga qo'shilmoqda. 2025-yilda mamlakatga 11,7 million xorijiy sayyoh kelgan [3]. Bu 2024-yilga nisbatan 3,5 million ko'p, ya'ni o'sish 43 foizni tashkil etgan (2024-yilda 8,2 million edi) [3]. Turizm eksporti esa 2024-yildagi 3,52 milliard dollardan 2025-yilda 4,8 milliard dollarga oshgan [4]. "O'zbekiston-2030" strategiyasida esa 20 million sayyohni qabul qilish va 6 milliard dollar daromad olish maqsad qilingan [4]. Bu o'sishning asosiy sababi – mamlakatning boy madaniy merosi. Sayyohlarning ko'pi Samarqand, Buxoro va Xiva kabi Ipak yo'li shaharlariga boradi.

Buxoro viloyati turizmida alohida o'rin tutadi. Buxoro shahrining tarixi ikki ming yildan oshadi va u O'rta Osiyodagi eng yaxshi saqlanib qolgan o'rta asr shahri sifatida tanilgan [5]. YUNESKOning ikkinchi mezonini Buxoroning O'rta Osiyoning keng hududida shaharsozlikka ko'rsatgan kuchli ta'sirini, to'rtinchi mezonini esa shaharning o'zining o'rta asr qiyofasini deyarli o'zgartirmagan holda saqlab qolganligini tasdiqlaydi [6]. 1993-yildan beri YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan Buxoro tarixiy markazida 260 dan ortiq tarixiy obida bor [5]. Ular har yili yuz minglab sayyohlarni o'ziga tortadi. Meros shahri sifatida Buxoro aylanma turizm modellarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [5]. Meros obyektlaridan foydalanish madaniy, ijtimoiy hamda iqtisodiy foyda keltiradi [7].

Lekin sayyohlar sonining tez o'sishi jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Srivastava aytganidek, turizm faoliyatining me'yoridan oshib ketishi "haddan tashqari sayyohlik turizmning o'zini yo'q qiladi" degan hodisaga olib keladi [8]. Nazoratsiz o'sish bir tomondan iqtisodiy foyda keltirsa-da, ikkinchi tomondan me'moriy obidalarga zarar yetkazish, mahalliy aholining hayot sifatini pasaytirish va sayyohlarning tajribasini yomonlashtirish xavfini tug'diradi. Aynan shu sababli turistik sig'im tushunchasi – ya'ni bir obyekt o'zining barqarorligini saqlab qolgan holda qancha sayyohni qabul qila olishini ilmiy usulda aniqlash – bugungi kunda meros turizmini boshqarishning markaziy vositasiga aylangan [9; 10].

Ushbu tadqiqot aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan. Buxoro tarixiy markazidagi muhim madaniy meros obyektlaridan biri – Fayzullo Xo'jayev uy muzeyi misolida fizik sig'im va haqiqiy sig'im ko'rsatkichlari dala tadqiqotlari orqali aniqlandi. Tadqiqot natijalari ushbu obyekt uchun ilmiy asoslangan turizm oqimini boshqarish qarorlarini qabul qilishga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik sig'im (Tourism Carrying Capacity - TCC) tushunchasi dastlab ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik sayyohlik fanida mustaqil metodologik yo'nalishga aylandi. Srivastava ta'kidlashicha, TCC o'z mohiyatiga ko'ra "ma'lum bir hududda sayyohlik faoliyatining salbiy oqibatlarini yuzaga keltirmasdan qabul qilish mumkin bo'lgan ziyoratchilarning maksimal soni"ni anglatadi [8]. Ushbu ta'rif vaqt o'tishi bilan kengayib, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv chegaralarini ham o'z ichiga oldi [10].

Metodologik jihatdan bugungi kunda eng keng tarqalgan yondashuv Cifuentes tomonidan IUCN (Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi) uchun ishlab chiqilgan uch bosqichli model hisoblanadi [9]. Ushbu model fizik



sig'im (PCC), haqiqiy sig'im (RCC) va samarali sig'im (ECC) bosqichlarini o'z ichiga olib, har bir keyingi bosqich oldingi bosqichning tuzatish koeffitsiyentlari orqali hisoblangan qiymatidir. Aylanish koeffitsiyenti tushunchasini metodologiyaga birinchi bo'lib Boullon kiritgan bo'lib, u "kunlik ochiq soatlar / o'rtacha tashrif davomiyligi" formulasini taklif qilgan [14]. Mazkur formula hozirgi kunda ham barcha TCC tadqiqotlarining asosiy hisoblash vositasi bo'lib qolmoqda [9; 13].

Xalqaro miqyosda TCC metodologiyasini madaniy meros saytlarida qo'llash bo'yicha tadqiqotlar soni so'nggi o'n yilliklarda keskin oshdi. Magabli va Al-Shorman Iordaniyadagi Petra YUNESKO meros saytida fizik sig'imni hisoblash bo'yicha muhim tadqiqot o'tkazdilar [12]. Boullon modelidan foydalangan holda hisoblangan natijalarga ko'ra, Petra uchun oylik sig'im 16 200 ziyoratchini tashkil etgan, biroq shu bilan birga ushbu ko'rsatkich yanvar oyidan tashqari barcha fasllar davomida oshib ketgani aniqlangan [12]. Tadqiqot tarixiy obyektlarda sayyohlar oqimini mavsumiy taqsimlash zarurligini ko'rsatdi.

Diniy va ziyoratgoh maqomidagi meros saytlari uchun maxsus TCC hisoblash metodologiyasini Jangra va Kaushik (2017) Hindistondagi Kurukshehra shahridagi Brahm Sarovar saytida sinab ko'rdilar [13]. Ular IUCN formulasi asosida beshta ko'rsatkich - maydon, avtoturar joy, hojatxona, ichimlik suvi va yo'lak bo'yicha alohida PCC hisob-kitoblarini amalga oshirib, saytning kunlik maksimal quvvati 567 534 ziyoratchi ekanligini aniqladilar [13]. Ushbu tadqiqotning metodologik hissasi shundaki, turli funksional zonalar uchun bir kishiga mo'ljallangan maydon me'yorlari (1 m² dan 10 m² gacha) tabaqalashtirilgan holda qo'llanilgan.

Erdogan Turkiyaning Amasya shahridagi ko'p xususiyatli YUNESKO meros saytida Cifuentes modelini zamonaviy meros kontekstiga muvaffaqiyatli moslashtirib, PCC, RCC, ECC va ijtimoiy sig'im (SCC)ni birgalikda hisobladi [11]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hatto umumiy sig'im yetarli bo'lgan hollarda ham alohida zonalar sig'imi oshib ketishi mumkin - bu holat me'moriy buzilishlarga, mahalliy aholining noroziligiga va sayyohlik tajribasining yomonlashishiga olib keladi [11]. Bundan tashqari, Makhadmeh va boshqalar Iordaniya dekapolis shaharlaridan biri - Jerash (Gerasa) arxeologik saytida GAT modellashtirish yordamida sig'imni hisoblash metodologiyasini ishlab chiqdilar va turistlar oqimining me'moriy yodgorliklar xavfsizligini jiddiy xavf ostiga qo'yayotganini aniqladilar [18].

Turistik sig'im muammosi faqat miqdoriy ko'rsatkich bilan cheklanmaydi. U sayyohlik manzilining hayot sikli (TALC) bilan chambarchas bog'liq. Butler taklif qilgan TALC modeli kashfiyot, jalb etish, rivojlanish, konsolidatsiya, turg'unlik va tanazzul bosqichlari sayyohlik sig'imining oshib ketishi qanday qilib manzilning o'z-o'zini yo'q qilishiga olib kelishi mumkinligini tushuntiradi [15]. Doxey esa mahalliy aholining sayyohlarga munosabatini ifodalovchi "Bezovtalanish indeksi" (Irridex) modelini ishlab chiqib, sig'imdan oshib ketish ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir qilishini ko'rsatdi [17]. YUNESKO/ICCROM/ICOMOS/IUCN tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon merosi kontekstida ta'sir baholash bo'yicha qo'llanma" Buxoro kabi YUNESKO obyektlarida sig'im baholashning huquqiy-metodologik asosini belgilaydi [16]. Ushbu hujjat sayt boshqaruvchilari uchun sig'im hisoblashni majburiy amaliyotga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston, xususan, Buxoro shahridagi tarixiy meros obyektlarida TCCni o'lchashga qaratilgan maxsus tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Mavjud ishlar asosan meros turizmining umumiy rivojlanish muammolari yoki GAT texnologiyalari yordamida marshrut optimallashtirish bilan chegaralanadi. Kilichov va boshqalar Buxorodagi meros turizmini rivojlantirishda GAT texnologiyalaridan foydalanib, sayyohlik marshrutlarini optimallashtirish modelini taklif qildilar, biroq konkret sig'im ko'rsatkichlarini o'lchamadilar [7]. Khamidov va Khayrullaeva esa Buxoro viloyatida barqaror turizmni rivojlantirish masalasini ko'rib chiqib, turistik infratuzilmaning yetarli emasligi va obyektlarning haddan ortiq zo'riqishi muammolarini belgiladilar [6].

Mazkur adabiyotlar sharhidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, Cifuentes metodologiyasi xalqaro miqyosda meros saytlarida samarali qo'llanilayotgan bo'lsa-da [9; 11; 12; 13], Buxoro tarixiy markazidagi alohida obyektlar uchun dala tadqiqotlariga asoslangan miqdoriy sig'im o'lchovlari hali amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot aynan mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadini ko'zlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Buxoro tarixiy markazidagi Nodir Devonbegi Xonaqohida dala tadqiqotlari orqali fizik va haqiqiy sig'imni o'lchashga asoslangan. Metodologik asos sifatida Cifuentes tomonidan IUCN uchun ishlab chiqilgan va Erdogan tomonidan meros saytlarida tasdiqlangan uch bosqichli model qabul qilindi [9; 11]. Ushbu tadqiqotda PCC va RCC bosqichlari hisoblandi. ECC esa keyingi tadqiqot bosqichiga qoldirildi.

Ma'lumotlar ikki yo'l bilan yig'ildi: 1) GPS o'lchov asboblari va kadastr hujjatlari yordamida obyekt maydonlari aniqlandi; 2) har bir obyektida kamida 50 ziyoratchi kuzatildi, kirish va chiqish vaqtlari qayd etilib, o'rtacha tashrif davomiyligi hisoblandi.

Fizik sig'im quyidagi formula asosida hisoblandi [9; 14]:

$$PCC = S \times U$$



Bu yerda:

$$S = \frac{E}{a_{och}} + \frac{G}{a_{yop}} + \frac{H}{a_{tor}} + \frac{I}{a_{min}} - \frac{K}{a_{och}} - \frac{L}{a_{och}}$$

$$U = \frac{\text{Ochiq soatlar}}{\text{Tashrif vaqti (daq)/60}}$$

Belgilar izohi (1-jadval):

1-jadval. Turistik sig'imni hisoblashda qo'llanilgan maydon turlari va me'yoriy ko'rsatkichlar¹

Belgi	Ma'no	Bir kishiga maydon (a)
E	Ochiq maydon / hovli	3.0 m ²
G	Yopiq / ichki zal	2.0 m ²
H	Tor yo'lak (< 2 m)	1.2 m ²
I	Minora / tor ko'tarilish	1.1 m ²
K	Hovuz / suv - ayiriladi	3.0 m ²
L	Bog' / gulzor - ayiriladi	3.0 m ²

a qiymatlari Jangra va Kaushik va Cifuentes tavsiyalariga asoslangan [9; 13].

Haqiqiy sig'im PCC ga iqlim va savdo zonasi tuzatish koeffitsiyentlari tatbiq etilishi orqali hisoblandi [9; 11]:

$$RCC = PCC \times \left(1 - \frac{M + N + O}{\Sigma A}\right) \times \left(1 - \frac{d_{issiq}}{365}\right) \times \left(1 - \frac{d_{sovuq}}{365}\right)$$

Bu yerda M - savdo rastasi, N - muzey eksponati, O - xizmat texnik zonasi maydoni; d_{issiq} - yiliga 35°C dan yuqori kunlar soni (82 kun), d_{sovuq} - yiliga 0°C dan past kunlar soni (30 kun) O'zgidromet ma'lumotlari asosida [9].

Natijada umumiy iqlim koeffitsiyenti = 71.16% qabul qilindi, ya'ni PCC ning 28.84 %i iqlim cheklovlari sababli kamaytirildi.

Kunlik ko'rsatkichlardan yillik va mavsumiy sig'imlar quyidagicha hisoblandi:

$$PCC_{yillik} = PCC \times 365$$

$$RCC_{yillik} = RCC \times 365$$

$$PCC_{mavsum} = PCC \times 253$$

$$RCC_{mavsum} = RCC \times 253$$

Bu yerda 253 kun yilning issiq va sovuq kunlardan ozod bo'lgan faol mavsumi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nodir Devonbegi Xonaqohining maydon tarkibi, har bir zonaning maydoni va turistik sig'imni hisoblashda ushbu maydon qanday amal qilishi quyidahi 1-jadvalda ko'rsatilgan. Jadvalga ko'ra, ochiq hovli 1 670 kvadrat metr va yopiq zallar 638 kvadrat metr sig'imga qo'shiladi. Bog' va gulzor 340 kvadrat metr sig'imdan ayiriladi (2-jadval).

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2-jadval. Nodir Devonbegi Xonaqohi- maydon tarkibi²

Zona turi	Maydon (m ²)	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	1 670	qo'shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	638	qo'shiladi
Bog' / gulzor (L)	340	ayiriladi
Muzey eksponati (N)	34	RCC tuzatishi

Muzey eksponati 34 kvadrat metr hajmga ega bo'lib, u haqiqiy sig'imni hisoblashda tuzatish talab qiladi. Hovuz, savdo rastasi va xizmat texnik zonasi xonaqohda mavjud emas, shuning uchun ular hisobga olinmagan. Qo'shiladigan maydonlar yig'indisi 2 308 kvadrat metrni, ayiriladigan va tuzatiladigan maydonlar yig'indisi esa 374 kvadrat metrni tashkil qiladi (3-jadval).

3-jadval. Nodir Devonbegi Xonaqohi - sig'im natijalari³

Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	762.3
Ochiq soat / Tashrif vaqti	9 soat / 20 daqiqa
Aylanish koeffitsiyenti	27
Iqlim koeffitsiyenti	71.16%
Fizik sig'im - PCC	20 582 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im - RCC	14 321 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	7 512 430 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	5 227 165 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	5 207 246 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	3 623 213 ziyoratchi/mavsum

Jadvalda Nodir Devonbegi Xonaqohining sig'im hisob-kitoblari natijalari keltirilgan. Jadvalga ko'ra, sig'im summasi 762,3 ni tashkil qilgan. Xonaqohning ochiq soatlari 9 soat 20 daqiqa, aylanish koeffitsiyenti esa 27 ga teng. Iqlim koeffitsiyenti 71,16 foiz etib belgilangan. Ushbu ko'rsatkichlar asosida fizik sig'im (PCC) kuniga 20 582 ziyoratchi, haqiqiy sig'im (RCC) esa kuniga 14 321 ziyoratchi deb hisoblangan. Yillik hisobda fizik sig'im 7 512 430 ziyoratchini, haqiqiy sig'im esa 5 227 165 ziyoratchini tashkil qiladi. Mavsumiy ko'rsatkichlar 253 faol kun uchun hisoblangan: fizik sig'im bo'yicha 5 207 246 ziyoratchi va haqiqiy sig'im bo'yicha 3 623 213 ziyoratchi. Fizik va haqiqiy sig'im o'rtasidagi farq taxminan 30,4 foizni tashkil etib, bu asosan iqlim omili va ayrim hududlarning ziyoratchilar uchun yopiqligi bilan bog'liq.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Nodir Devonbegi Xonaqohi uchun fizik sig'im (PCC) kuniga 20 582 ziyoratchini, haqiqiy sig'im (RCC) esa kuniga 14 321 ziyoratchini tashkil etadi. RCC/PCC nisbati 69,6 foizga teng. Bu ko'rsatkich Erdogan tomonidan xalqaro meros saytlari uchun belgilangan 40-70 foizlik me'yor doirasida joylashadi. Demak, hozircha xonaqohda sig'im chegarasining buzilishi kuzatilmayapti va mavjud sig'im ziyoratchilarni qabul qilish uchun yetarli darajada hisoblanadi.

RCCning PCCdan taxminan 30,4 foizga (6 261 ziyoratchi/kunga) past bo'lishining asosiy sababi iqlim koeffitsiyenti (71,16 foiz) va ayrim hududlarning ziyoratchilar uchun yopiqligidir. Maydon tarkibi tahliliga ko'ra, ochiq hovli (1 670 m²) va yopiq zallar (638 m²) sig'imga qo'shilsa, bog' va gulzor (340 m²) sig'imdan ayiriladi. Muzey eksponati (34 m²) esa haqiqiy sig'imni hisoblashda tuzatish talab qiladi. Xonaqohda hovuz, savdo rastasi va xizmat texnik zonasi mavjud emas, shuning uchun ular hisobga olinmagan. Savdo zonasining yo'qligi RCC/PCC nisbatining nisbatan yuqori bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Aylanish koeffitsiyenti 27 ga teng bo'lib, bu ziyoratchilar oqimining tezligini va obyektning bandlik darajasini ko'rsatadi. Ochiq soatlar 9 soat 20 daqiqa qilib belgilangan. Sig'im summasi 762,3 ni tashkil qilgan.

Amaliy nuqtayi nazardan, Nodir Devonbegi Xonaqohi uchun kunlik 14 321 ziyoratchi soni ilmiy asoslangan boshqaruv limiti sifatida tavsiya etilishi mumkin. Yillik hisobda haqiqiy sig'im 5 227 165 ziyoratchini, mavsumiy hisobda (253 faol kun) esa 3 623 213 ziyoratchini tashkil qiladi. Shu sababli, ayniqsa turizm mavsumida kunlik tashrif buyuruvchilar sonini 14 321 dan oshirmaslik kerak.

² Manba: muallif ishlanmasi.

³ Manba: muallif ishlanmasi.



Biroq ikki muhim jihatni alohida ta'kidlash zarur. Birinchidan, xonaqohda ochiq hovli (1 670 m²) va yopiq zallar (638 m²) maydonlari nisbatiga ko'ra, ochiq hudud kengligi sababli iqlim omili kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yozning issiq kunlarida ziyoratchilarning qulayligini ta'minlash uchun ochiq hovli hududida soyabonlar, pergolalar yoki yengil tom qoplamalarini o'rnatish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, aylanish koeffitsiyentining nisbatan yuqoriligi mavsumiy cho'qqi kunlarida ziyoratchilar oqimining haddan oshib ketishi xavfini tug'diradi. Shu sababli real vaqt rejimida tashrif buyuruvchilar sonini kuzatuvchi tizimni joriy etish va kerak bo'lganda tashrif vaqtlarini tartibga solish tavsiya etiladi.

Kelgusida xodimlar soni, infratuzilma imkoniyatlari va boshqa boshqaruv omillarini hisobga olgan holda samarali sig'imni (Effective Carrying Capacity – ECC) aniqlash keyingi tadqiqotlarning vazifasi bo'lishi kerak. Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari Buxoro shahar hokimligi va meros boshqaruvi organlari uchun Nodir Devonbegi Xonaqohida turizm oqimini ilmiy asosda boshqarish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot Buxoro tarixiy markazidagi Nodir Devonbegi Xonaqohi obyektida Cifuentes uch bosqichli modeli asosida dala tadqiqotlari orqali fizik va haqiqiy turistik sig'imni o'lchashga bag'ishlandi. Hisoblash natijalari quyidagilarni ko'rsatdi. Nodir Devonbegi Xonaqohi uchun fizik sig'im (PCC) kuniga 20 582, haqiqiy sig'im (RCC) esa kuniga 14 321 ziyoratchini tashkil etdi. RCC/PCC nisbati 69,6 foizni tashkil etib, bu Erdogan tomonidan xalqaro meros saytlari uchun belgilangan 40-70 foizlik me'yor doirasida joylashdi. Bu holat hozircha xonaqohda sig'im chegarasining buzilmaganligidan dalolat beradi [11]. Shu bilan birga, tadqiqot ikkita amaliy muammoni aniqladi. Birinchisi, ochiq hovli (1 670 m²) va yopiq zallar (638 m²) maydonlari nisbatida ochiq hududning kengligi sababli iqlim omilining (71,16 foiz) kuchli ta'siri bo'lib, ayniqsa yozning issiq kunlarida ziyoratchilarning qulayligini pasaytiradi. Ikkinchisi, aylanish koeffitsiyentining nisbatan yuqoriligi (27) tufayli mavsumiy cho'qqi kunlarida ziyoratchilar oqimining haddan oshib ketish xavfi mavjudligi bo'lib, bu real vaqt rejimida kuzatuv tizimini joriy etishni talab qiladi [13].

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi. Nodir Devonbegi Xonaqohi uchun kunlik 14 321 ziyoratchi sonini rasmiy boshqaruv limiti sifatida belgilash; ochiq hovli hududida soyabonlar, pergolalar yoki yengil tom qoplamalarini o'rnatish orqali iqlim omilining salbiy ta'sirini kamaytirish; mavsumiy cho'qqi kunlarida tashrif vaqtlarini tartibga solish va real vaqt rejimida kuzatuv tizimini joriy etish. Keyingi tadqiqot bosqichida xodimlar soni va infratuzilma imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali sig'imni (ECC) ham aniqlash zarur [11; 13].

Umuman olganda, ushbu tadqiqot O'zbekiston miqyosida tarixiy meros obyektlarida ilmiy asosda turistik sig'imni o'lchashning dastlabki amaliy namunalaridan biri bo'lib, Buxoro tarixiy markazini barqaror boshqarishga metodologik hissa qo'shadi. Kelajakda ushbu yondashuv Buxorodagi qolgan 260 dan ortiq tarixiy-me'moriy yodgorliklarga ham tatbiq etilishi mumkin [5; 9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UN Tourism. International tourist arrivals up 4% in 2025 reflecting strong travel demand around the world [Elektron resurs]. – URL: <https://www.untourism.int/news/international-tourist-arrivals-up-4-in-2025-reflecting-strong-travel-demand-around-the-world>
2. UN Tourism. International Tourism Recovers Pre-Pandemic Levels in 2024 [Elektron resurs] / UN Tourism. - URL: <https://www.untourism.int/news/international-tourism-recovers-pre-pandemic-levels-in-2024>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025 yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66309-2025-jilda-zbekistonga-11-7-million-nafar-turist-kelgan-2>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
5. YUNESKO World Heritage Centre. Historic Centre of Bukhara [Elektron resurs]. - URL: <https://whc.YUNESKO.org/en/list/602/>
6. Khamidov O., Khayrullaeva N. Sustainable Tourism Development in the Bukhara Region: A Development Research Model at Heritage Resources / O. Khamidov, N. Khayrullaeva // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. - 2021. - Vol. 1, No. 1. - URL: <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/download/1162/1158/2247>
7. Kilichov M., Olsavsky F., Baiburiev R., Khayrullaeva N., Dávid L.D. Optimizing Sustainable Tourism Routes through GIS to Enhance Tourist Length of Stay in Bukhara // Journal of Cultural Analysis and Social Change. - 2026. - Vol. 11, № 1. - P. 1771-1787. - DOI: 10.64753/jcasc.v11i1.4187.
8. Srivastava N. Measurement of Carrying Capacity of Tourist Destinations: A Case Analysis / N. Srivastava // International Journal of Tourism and Travel. - 2017. - Vol. 10, No. 1. - P. 38-46.
9. Cifuentes Arias M. Determinación de capacidad de carga turística en áreas protegidas / M. Cifuentes Arias. - Turrialba (Costa Rica) : CATIE, 1992. - 28 p.



10. UNWTO. Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations - A Guidebook / UNWTO. - Madrid : UNWTO, 2004. - 516 p.
11. Erdoğan A. Carrying Capacity Assessments for Sustainable Tourism in a Heritage Site / A. Erdoğan // Advances in Hospitality and Tourism Research (AHTR). - 2025. - Vol. 13, No. 3. - P. 237-274. - DOI: 10.30519/ahtr.1483060.
12. Magabli K., Al-Shorman A. The Physical Carrying Capacity at the Cultural Heritage Site of Petra / K. Magabli, A. Al-Shorman // Tourism Analysis. - 2009. - Vol. 13, No. 5-6. - P. 511-515. - DOI: 10.3727/108354208788160414.
13. Jangra R., Kaushik S.P. Assessment of Physical Carrying Capacity for Managing Sustainability at Religious Tourist Destinations / R. Jangra, S.P. Kaushik // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. - 2017. - Vol. 5, Iss. 1, Article 5. - URL: <https://arrow.tudublin.ie/ijrtp/vol5/iss1/5/>
14. Boullon R. Framework Guidelines for Assessing Carrying Capacity / R. Boullon // FAO Corporate Document Repository. - 1985. - URL: <https://www.fao.org/docrep/X5626E/x5626e0e.htm>
15. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources / R.W. Butler // Canadian Geographer. - 1980. - Vol. 24, No. 1. - P. 5-12.
16. YUNESKO ; ICCROM ; ICOMOS ; IUCN. Guidance and Toolkit for Impact Assessments in a World Heritage Context / YUNESKO. - Paris : YUNESKO, 2022. - 148 p.
17. Doxey G.V. A Causation Theory of Visitor-Resident Irritants: Methodology and Research Inferences / G.V. Doxey // Proceedings of the Travel Research Association 6th Annual Conference. - San Diego, 1975. - P. 195-198.
18. Makhadmeh A., Al-Badarneh M., Rawashdeh A., Al-Shorman A. Evaluating the Carrying Capacity at the Archaeological Site of Jerash (Gerasa) Using Mathematical GIS Modeling / A. Makhadmeh [et al.] // Egyptian Journal of Remote Sensing and Space Sciences. - 2020. - Vol. 23, No. 2. - P. 159-165. - DOI: 10.1016/j.ejrs.2018.09.002.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>